



LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI

1- LABORATORIYA ISHI

Rux gidroksidning olinishi, unga kislota va ishqor eritmalarining ta'siri

1. Probirkaga 5 % li o'yuvchi natriy eritmasidan 1—2 *ml* quying.
2. Eritma ustiga rux xlorid tuzi eritmasidan mo'l miqdorda soling.
3. Hosil bo'lgan cho'kmani ikkita probirkaga bo'lib oling.
4. Probirkalarning biriga xlorid kislota ikkinchisiga o'yuvchi natriy eritmasidan quying. Probirkalarni chayqating.

Topshiriq

1. O'tkazilgan tajribaning har bir bosqichida sodir bo'lgan o'zgarishning sababini tushuntiring.
2. Mis (II)-xlorid eritmasi bilan ham yuqoridagiga o'xshash tajribalarni takrorlang.
3. Barcha tajribalarda sodir bo'lgan kimyoviy jarayonlarning reaksiya tenglamalarini daftaringizga yozing.
4. Rux gidroksid bilan mis (II)-gidroksidning xossalarini solishtiring.